# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING QONUNIY KAFOLATLARI

**M.B.Muxtorova**
*Qo'qon DPI o'qituvchisi*
**Toshkentbayeva Nafosat**
*Qo'qon DPI talabasi*

**Annotatsiya:** *Dunyoda bolalarning ma'naviy-siyosiy mavqei, oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash, yosh avlodning huquqlarini himoya qilish tendensiyalarini belgilash, bolalarning huquqqa oid tushunchalarini rivojlantirish, voyaga yetmaganlar hulqida namoyon bo'luvchi salbiy illatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanizlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maxsus ta'lim tizimida bola huquqlarini himoya qilishga har bir bolaga tegishli masala bo'lib, uning huquqiy asoslarini mustaxkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'z:** *BMT, dekloratsiya, ustav, nogiron, tashkilot, qonun, huquq*

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 4 bob, 32 moddadan iborat hisoblanadi.Ushbu qonunning 1-bobi "Umumiy qoidalar" deb nomlanadi. 1-Bob 6ta moddadan iborat hisoblanadi

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 2-bobi "Bola huquqlarining asosiy kafolatlari" deb nomlanadi. Ushbu bob esa 24 moddadan iborat.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-bobi "Ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari" deb nomalanib ushbu bobga 24- moddadan 29 moddalargacha kiritilgan kiritilgan.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 4-bobi "Yakunlovchi qoidalar" hisoblanib ushbu bobiga esa 30-32 moddalar kiritilgan.

Ushbu qoninning maqsadi: Bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

0'zbekiston Respublikasi qo'shilgan ilk xalqaro shartnomalardan biri "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi asosida "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 0'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan bo'lib unga ko'ra bola huquqlarining kafolatlari quyidagilardan iborat:

Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari (7 -modda)

Bolaning yashash huquqi kafolatlari (8-modda)

Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqiy kafolatlari (9-modda)

Bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiy kafolatlari (10-modda)

Bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (12-modda)

Bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqiy kafolatlari (13-modda)

Bolaning g'ayriqonuniy ko'chirilishidan himoyalanish huquqiy kafolatlari (14-modda)

Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqiy kafolatlari (15-modda)

Bolaning axborot olish huquqiy kafolatlari (16-modda)

Bolaning fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi kafolatlari (17- modda)

Bolaning turar-joyga bo'lgan huquqi kafolatlari (19-modda)

Bolaning mehnat qilish huquqi kafolatlari (20-modda)

Bolaning dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqiy kafolatlari (21- modda)

Bolaning sog'ligini saqlash huquqiy kafolatlari (22-modda)

Bolaning bilim olish huquqi kafolatlari (23-modda).

Shuningdek, nogironlar huquqlari to'g'sidagi Konvensiya BMT Bosh Assambleyasining 2006 yil 10-dekabrdagi 61/106-son rezalyusiyasi bilan qabul qilingan, ushub konvensiyaning maqsadi nogironlarning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish, hamda ularning to'la va keng amalga oshirilishining ta'minlash, shuningdek, qadr-qimmatlarini rag'batlantirishdan iborat.

Nogironlik:

1. Kasallik yoki jaroxat oqibatida umumiy yoki kasbiy layoqatlilikning barqaror buzulishi (pasayishi, yuqolishi):

2. Axolining sog'lig'ini tavsiflaydigan statistik ko'rsatkich.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'sida"gi Qonunning 4-moddasi Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag‘rikenglik va tinchliksevarlik tuyg‘ularini tarbiyalash;

bolani O‘zbekiston xalqining tarixiy va milliy an’analari, ma’naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ij odkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

bola huquqlarini ta’minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlik qilish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

bolalarning ijtimoiy ko‘nikmasiga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko‘maklashish.

“O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning (2020 yil 7-avgust) 2-bobi Ta’lim tizimi, turlari va shakllari deb nomlanib, ushbu bobga 20- modda qilib inklyuziv ta’lim kiritildi.

Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim e’xtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida, ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi 0‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi, ularni o‘qish va yozishga o‘rgatish muammolari, ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko‘mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi mas’uliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Ta’lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta’lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislar malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo‘llanmalar, jihozlar bilan ta’minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo‘yilgan qadamlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, avvalo sohaga doir qonunchilik hujjatlari va mustahkam huquqiy-me’yoriy asos yaratilmog‘i lozim.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta’lim turini tanlashni taqozo etadi Bu borada respublikamizda ham siyosiy, tashkiliy, huquqiy chora tadbirlar izchil rivojlantirilib borilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. AFRUZAXONIM, OLIMJONOVA MOXICHEXRA TOSHKENBOYEVA NAFOSATXON XAMDAMOVA, and MUHTOROVA MAFTUNA. "BO 'LAJAK DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI." Confrencea 12.12 (2023): 577-588.

2. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

3. Islomjon, Haydarov, Nabiyeva Nozimakhan, and Odilova Rushanabobu. "METHODS OF TEACHING PRONUNCIATION TO CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." E Conference World. No. 3. 2023.

4. Islomjon, Haydarov, and Tursunova Nilufar. "PRONUNCIATION LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN." E Conference World. No. 3. 2023.

5. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O 'QITISHNING ASOSIY METODI SIFATIDA–TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." HOLDERS OF REASON 1.1 (2023): 36-40.

6. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

7. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF SELF-DEVELOPMENT COMPETENCE IN STUDENTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 369-373.

8. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

9. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

10. Xabibullo o'g'li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o'g'li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.

11. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.

12. Azimjon o‘g, Oppoqxo‘jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.

13. Azimjon o‘g, Oppoqxo‘jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.

14. Shavkatjon o'gli, Nabiyev Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.

15. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.

16. Azimjon o‘g, Oppoqxo‘jayev Xojixuja. "NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGOPEDIK RITMIKANING AHAMIYATI." Confrencea 12.12 (2023): 169-175.

17. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

18. Azizabonu, Babayeva, and Kabirova Zarnigor. "METHODOLOGY FOR CHECKING THE SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 40-43.

19. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHRIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

20. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL COMPETENCE AND FORMATION OF FUTURE LOGIC THERAPISTS." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

21. Shavkatjon o'gli, Nabiyev Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO ‘LGAN O ‘QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O ‘ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.

22. QIZI, XONBABAYEVA MADINABONU ASQARJON. "STAGES OF DEVELOPMENT OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE." NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal (2023).

23. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "Methods of Pedagogical-Psychological Correction of Future Logic Therapists with Special School Children." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1.10 (2023): 37-40.

24. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 53-60.

25. Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO ‘LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 61-69.

26. Azimjon o‘g, Oppoqxo‘jayev Xojixuja. "YUQORI SINF O’QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 18-25.

27. Azimjon o‘g, Oppoqxo‘jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o’g’li. "INKLYUZIV TA’LIMNING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57.

28. Oppoqxo’jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O ‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG ‘ULOTLARINI LOYIHALASH." Development and innovations in science 2.5 (2023): 25-31.

29. Oppoqxo‘jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." Молодые ученые 1.2 (2023): 99-102.

30. Nabiyev, R. Sh. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING FAOLIYAT XUSUSIYATLARI." Science Promotion 1.2 (2023): 139-144.

31. Makhmudov, Khurshidjon, and Khovodillayev Murodjon. "THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 44-47.

32. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 343-347.

33. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 547-552.